



JAHON MAMLAKATLARIDA KOMPARAVISTIK PEDAGOGIK IZLANISHLARNING ILMIY NAZARIY MANBALARI

*Guliston Davlat Pedagogika Instituti pedagogika fakulteti pedagogika
yo'nalishi 9.23-guruh talabasi Toshqulova Marjona*

Annotatsiya: Ushbu maqolada jahon mamlakatlarida komparativistik pedagogik izlanishlarning ilmiy-nazariy asoslari tahlil qilinadi. Turli davlatlarning ta'lim tizimlari, ularning rivojlanish bosqichlari hamda zamonaviy pedagogik yovdashuvlari solishtirma tarzda o'rganiladi. Maqola ta'lim sifatini oshirishda komparativistik tadqiqotlarning o'rni va ahamiyatini ochib beradi.

Kalit so'zlar: Komparativistik pedagogika, ta'lim tizimi, ilmiy-nazariy manbalar, taqqoslama tahlil, xorij tajribasi, pedagogik izlanishlar, xalqaro ta'lim, metodologiya, ilmiy yondashuv, innovatsion ta'lim, didaktik tamoyillar, ta'lim siyosati.

Kirish:

Bugungi globallashuv sharoitida ta'lim tizimini rivojlantirish har bir mamlakat uchun ustuvor yo'nalish hisoblanadi. Shu bois, dunyo mamlakatlarining ilg'or pedagogik tajribalarini o'rganish va ularni mahalliy sharoitga moslashtirish zarurati ortib bormoqda. Komparativistik pedagogika — bu turli mamlakatlar ta'lim tizimlarini ilmiy tahlil va taqqoslash orqali umumiy qonuniyatlarni aniqlashga qaratilgan fan sohasidir. Jahon mamlakatlarida komparativistik pedagogikasi ilmiy-nazariy asoslari ko'plab tadqiqotlar, xususan, kognitiv psixologiya, konstruktivizm, sotsiokultural nazariya va pedagogik psixologiyaning rivojlanishida kelib chiqqan. Bu sohava o'rganish jarayonlarida shaxsning faol



ishtiroki, bilimni yangi kontekslarda qo'llash va o'zini anglashga qaratilgan tadqiqotlarga asoslanadi.

Asosiy qism;

Ilmiy-nazariy asoslar manbalari:

Kognitiv psixologiya: Insonning fikrlash jarayonlari, xotira, etibor, muammoni hal qilish va bilimni qayta ishlash qobiliyatini o'rganadi.

Konstruktivizm: O'quvchilar o'z bilimlarini faol ravishda qurishini ta'kidlaydi. Bu nazariyada o'quvchi o'z tajribalari asosida yangi ma'lumotlarni o'zlashtiradi.

Sotsiokultural nazariya: O'rganishda jamiyat va madaniyatning rolini ta'kidlaydi, bunda hamkorlik, ijtimoiy o'zaro munosabatlar muhim o'rin tutadi.

Pedagogik psixologiya: O'qitish va o'rganish usullarini tadqiq qiladi, o'qituvchi va o'quvchi o'ratidagi munosabatlarni o'rganishga qaratilgan.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) nazariyalari: Raqamli ta'lim muhitida o'rganish jarayonlarini tadqiq qilishga yo'naltirilgan.

Fan asosan ta'lim siyosati, ta'lim turlari, o'qituvchilar tayyorlash tizimi, baholash usullarini tahlil qiladi. Rivojlangan maamlakatlarda (Finlyandiya, Yaponiya, AQSH, Germaniya) ta'lim tizimining muvaffaqiyati innovatsion metodlar, mustaqil fikrlashga o'rgatish, ta'limda erkinlik berish bilan bog'liq. "R. Umarov va T. Alimova ta'kidlashicha, komparativistik tahlil nafaqat xorijiy ta'lim tizimlarini o'rganish, balki milliy ta'lim siyosatini ilmiy asosda takomillashtirishga xizmat qiladi."

"A. Shirinova komparativistik pedagogika tadqiqotlarida sotsiokultural omillarning tahliliga alohida e'tibor qaratish zarurligini qayd etadi, chunki har bir ta'lim tizimi o'z milliy qadriyatlariga tayangan holda rivojlanadi", - deb ta'kidlagan.



Komparativistik pedagogika fanining shakllanishi XIX asr o'rtalariga to'g'ri keladi. Ushbu yo'nalishning asoschilari sifatida M. Sadvord, G. Kandel, F. Shnayder kabi olimlar tan olingan. Ularning ilmiy izlanishlari ta'lim tizimlarining tuzilishi, maqsadlari va metodlarini taqqoslashga asoslangan.

XXI asrda komparativistik izlanishlar yanada chuqurlashib, nafaqat maktab yoki oliy ta'lim darajasida, balki butun ta'lim siyosati, raqamli ta'lim, o'qituvchi tayyorlash tizimi kabi yo'nalishlarda olib borilmoqda. Masalan, Finlyandiya, Yaponiya, Germaniya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda ta'lim sifatini oshirish bo'yicha olib borilgan islohotlar boshqa davlatlar uchun o'rnak bo'lib xizmat qilmoqda.

Ilmiy-nazariy manbalar sifatida UNESCO, OECD, World Bank va boshqa xalqaro tashkilotlarning hisobotlari hamda nufuzli pedagogik tadqiqotlar asosiy manba sifatida xizmat qiladi. Ushbu manbalar orqali turli davlatlardagi ta'lim siyosati, dars jarayonlari, baholash tizimi va pedagogik innovatsiyalar o'rganiladi.

O'zbekiston ta'lim tizimini takomillashtirishda ham komparativistik tadqiqotlarning o'rni katta. Chunki xorijiy tajribalarni to'g'ri o'rganish, ularni milliy qadriyatlar va sharoitlar bilan uyg'unlashtirish natijasida ta'lim sifatini yanada yuksaltirish mumkin.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, komparativistik pedagogika-ilmiy-nazariy va amaliy yo'nalishdagi fan, maqsadimiz esa turli mamalakatlar ta'lim tizimlarini tahlil qilish, samarali tajribalarni milliy tizimiga tatbiq etishdir, turli davlatlarning ta'lim siyosati, metodik yondashuvlari va innovatsion tajribalari o'rganilishi orqali milliy ta'lim tizimini zamonaviy talablar asosida rivojlantirish imkoniyati paydo bo'ldi, yurtimizda ta'lim tizimini global tajribalar bilan uyg'unlashtirish, ta'lim sifatini oshirish hamda xalqaro raqobatdoshlikni ta'minlashga xizmat qiladi, jahon



mamlakatlarida olib borilayotgan komparativistik pedagogik izlanishlar ta'lim tizimini yangilash, ilmiy-nazariy asoslarni mustahkamlash va innovatsion yondashuvlarni joriy etishda muhim o'rin tutadi. Bu yo'nalishdagi tadqiqotlar nafaqat ilmiy ahamiyatga ega, balki amaliy jihatdan ham ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. O'zbekiston ta'lim tizimida ham ushbu yo'nalishdagi izlanishlarni chuqurlashtirish zamon talabi hisoblandi. Shunday qilib, komparativistik tadqiqotlar zamonaviy pedagogikaning ajralmas qismi bo'lib, u ta'limning ilmiy, metodik va amaliy jihatlarini boyitishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umarov R, A. Alimova T.A Komparativistik pedagogika- Toshkent: O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti nashriyoti, 2019, 180 b.

2. Shirinova A.M Komparativ pedagogika: nazariya va amaliyot.- Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021.- 160b.

3. Xolmatova D.X Komparativ pedagogika fanidan o'quv qo'llanma.- Toshkent: TDPU, 2020-145b.

4. Karimova M.S Pedagogik tadqiqotlarda zamonaviy metodologik yondashuvlar.